



## SALOHIYNING “BULBUL VA GUL” DOSTONI LINGVOPOETIKASI

**Surayyo Shodiyeva Salohiddin qizi**

*QarDU tayanch doktoranti*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada XVIII asrda yashab ijod etgan Salohiddin Salohiy qalamiga mansub bo'lgan “Bulbul va Gul” dostonining til xususiyatlari, xususan, asarda qo'llanilgan tasvir vositalari, monolog, dialog, maqol, antonim, sinonim, takrorlar hamda muallif va personaj tili haqida so'z yuritilgan. Bu orqali esa shoirning til leksik qatlamlaridan foydalanish mahorati aks ettirilgan. Qolaversa, ushbu maqola yordamida XVIII asr adabiy til holati to'g'risida ma'lumotga ega bo'lishimiz mumkin.*

**Kalit so'z:** *Salohiy, doston, o'zbek tili, sodda, xalqchil, fors-tojikcha so'zlar, muallif tili, personaj tili, tasvir vositalari, XVIII asr adabiy tili.*

**Абстрактный:** *В данной статье рассматриваются лингвистические особенности эпоса «Булбул ва Гул» (Соловей и цветок), написанного Салахиддином Салахи, жившим в XVIII веке, в частности, средства изображения, использованные в произведении, монолог, диалог, пословица, антоним, синоним, повторение, и язык автора и персонажа. Это показывает умение поэта использовать лексические пласты языка. Кроме того, с помощью этой статьи мы можем получить информацию о состоянии литературного языка 18 века.*

**Ключевые слова:** *Салахи, эпос, узбекский язык, простой, народный, персидско-таджикские слова, авторский язык, иероглифический язык, изобразительные средства, литературный язык XVIII века.*

**Annotation** *In this article the linguistic features of the epic “Bulbul va Gul” (Nightingale and Flower) written by Salahiddin Salahi, who lived in the 18th century, are discussed, in particular, the image tools used in the work, monologue, dialogue, proverb, antonym, synonym, repetition, and the language of the author and character. This shows the poet's ability to use the lexical layers of the language. In addition, with the help of this article, we can get information about the state of the literary language of the 18th century.*

**Key words:** *Salahi, epic, uzbek language, simple, folk, persian-tajik words, author's language, character's language, image tools, literary language of the 18th century.*

Til adabiyotning asosiy qurolidir (M.Gorkiy). Ana shu qurol vositasida ijodkor hayotni badiiy tasvirlaydi, asarning mavzusi, voqealarning mohiyati va obrazlarning xarakteriga qarab so'z va iboralar tanlaydi. Qolaversa, gap qurilishi usullarini, dialektizm, arxaizm, neologizm hamda jargon kabi badiiy tasvirlarning leksik vositalarini qo'llaydi. Bunda, albatta, soddalikka intilish asar tilining ravon, xalqchil, obrazli bo'lishi asosiy hisoblanadi. Bilamizki, mumtoz adabiyotimizning buyuk namoyondasi Zahiriddin Muhammad Boburning bayon etish uslubi sodda va xalqchil bo'lgan. Xususan, uning “Boburnoma” asariga katta baho bergan g'arb tarixchi



olimlardan biri Monstyuart Elfinstoun (1779-1859) ushbu asar haqida quyidagi fikrlarni qayd etib o'tadi: "Bu memuarlarda buyuk turk podshosining hayoti batafsil tasvirlangan, uning shaxsiy his-tuyg'ulari har qanday mubolag'adan, pardadan holi. Uning uslubi oddiy va mardona, jonli va obrazli. U o'z zamondoshlarining qiyofalari, urf-odatlarini va intilishlarini, qiliqlarini oynadek ravshan tasvirlaydi. Shu jihatdan bu asar Osiyoda yagona, chinakam tarixiy tasvir namunasidir". Shu nuqtai nazardan aytish mumkinki, XVIII asrda Qashqadaryo vohasida tashab ijod etgan Salohiddin Salohiy qalamiga mansub bo'lgan "Bulbul va Gul" dostonining tili ham sodda, barchaga tushunarli tarzda bitilgan. Salohiy mazkur dostonni yozar ekan, barcha o'zbeklarga pand-nasihati bo'lib, undan ma'naviy ozuqa olishi uchun asarni o'zbek tilida majoziy usul orqali bayon etib beradi.

O'zbek tilida asar yozishni o'ziga sharaf deb bilgan ijodkor "Bulbul va Gul"dan o'zbek xalqi bahramand bo'lishini istaydi. Asar xalqchilligini oshirish maqsadida asar tilining serma'no, jozibadorligini muallif va personajlar tilida bayon etadi. Ijodkor muallif tilining tushunarli, aniq bo'lishi kerakligini nazarda tutadi. Dostonda muallif va qahramonlar nutqi darajasini bir xil deb bo'lmaydi. Chunki asarning katta qismini qahramonlarning qayg'usi, o'y-fikrlari bilan bog'liq voqealar tashkil etadi. Shuning uchun shoir har bir obraz xarakteriga mos keladigan so'zlar (shevaga xos, varvarizm hamda ijobiy yoki salbiy ma'noli so'zlar)ni tanlaydi va personajlar tilida berib boradi. Zero, adabiyotshunos olim T.Boboyev ta'kidlaganidek: "Yozuvchi asarning mavzusi, voqealarning mohiyati va personajlarning xarakteriga qarab so'z va iboralar tanlaydi, gap qurilishi usullaridan, dialektlardan, inversiya, arxaizm, neologizm, jargon va boshka leksik resurslardan foydalanadi".<sup>1</sup> Bunday holni asarning ko'pgina o'rinlarida, xususan, qahramonlarning bir-biriga bergan ta'rif-tavsifida kuzatishimiz mumkin. Jumladan, quyidagi baytda Bulbul o'zini maqtab alqagan kabk (kaklikni muallif ushbu asarda kabk deya nomlaydi)ka qarata istehzoli qilib shunday deydi:

Dedi Bulbul ki kabkni: "Ey qizil ko'z,  
Kishi ko'p so'zlasa, yolg'on bo'lur so'z.<sup>2</sup>  
Magar devonasan ustingda janda,  
Na suvratdin yamog'ing muncha kunda.  
Nedur ko'b so'zlamoq, ey g'uncha tog'liq,  
Kiyib egningg'a to'n jundin yamoqliq.  
Qizil pocha erursan Gulg'a quyruq,  
Qilursan kimg'a muncha ulug'luq.  
Tushub nafsing uchun doim tuzoqg'a,  
Semiz kuyub alovga o'lma oqqa  
Uzun kun yo'rg'alab doim yurarsan,  
Tilab nafsing damo-dam oh urarsan.

<sup>1</sup> Бобоев Тўхта. Адабиётшунослик асослари — Т.: Ўзбекистон, 2002. -158 б.

<sup>2</sup> Salohiy. Gul va Bulbul tasviri. O'z FASHB, toshbosma inv 577.- 28b. (Ushbu asardan olingan keyingi paxchalarning sahifasi katta qavs ichida berib boriladi.)





Bahodirlik' so'zidin urmag'il lof,  
Chin ermas so'zlaring yolg'onchi kazzob. [29]

Ushbu baytning birinchi misrasida Bulbul maqtanchoq kaklikka nisbatan "Ey qizil ko'z" deb murojaat qiladi. Bulbulning bu chaqirig'idan, albatta, salbiy fikr, ya'ni mensimaslik, hurmatsizlik ma'nolari anglashiladi. Bulbul o'z fikrlarini bayon ettirar ekan, oxirgi misrada salbiylikni orttirib, kaklikni "yolg'onchi kazzob" deya ataydi.

Dostonda muallif tili salmoqli o'rin egallaydi. Asardagi voqealar, voqea ro'y bergan o'rin va sharoit tasviri, qahramonlarning yaxshi-yomon xislatlarini ochib berish va baholash muallif tilidan sodda va tushunarli tarzda berilgan. Muallif tilining o'ziga xos qirralarini qahramonlarga berilgan tavsiflarda yaqqol ko'rish mumkin. Masalan, Bulbul Qizil Gulga yetishish voqealari bayon etilgan holat diqqatga sazovordir. Salohiy ushbu voqeani gavdalantirib berar ekan, qahramonlarning tashqi ko'rinishi, vaziyati bilan birga ularning ruhiy holatiga ham alohida e'tibor qaratadi:

Chu Bulbul Gul diyorig'a ulashti,  
Tan-u jonig'a boshdin o't tutashti.  
Kelib ko'rdi guliston ichra Bulbul,  
Ko'rub Bulbuni Gul, ochildi gul-gul.  
Dedi Bulbul o'shal dam: "Shukrillah,  
Ki bo'ldum gulistonim birla hamrah".  
Xayol etti qutuldum deb balodin.  
G'ami zulmu sitamdin ham jafodin.  
Na bilsun anda ulkim yuz jafo bor,  
Batahsis ulki, Guldur hamdami xor,  
Guliston ichra nogah kirdi Bulbul,  
Tikon birla ikovlon o'lturub Gul.  
Tikonni dardig'a bechora Bulbul,  
Boshini oldi-yu ovora bo'ldi.  
Necha kun Guldin ul begona bo'ldi,  
Chunon ishq ahlig'a afsona bo'ldi.  
Yana bir go'shani koshona qildi,  
O'zini g'am bila hamxona qildi.

Ko'rinib turibdiki, parchada guliston, Gul, gul-gul ochildi, tikon, Bulbul kabi so'zlar Gul bilan bog'liq voqealarni, boshiga o't tutashdi, bechora, jafo, g'am kabi so'zlar qahramon (Bulbul)ning ruhiy ahvolini ifodalashda qo'llangan.

Aytish mumkinki, Salohiy muallif nutqida XVIII asr adabiy tili me'yorlariga alohida e'tibor beradi. Bunday ta'rif-tavsiflar personajlar tilida ham kuzatiladi. Salohiy asardagi har bir obraz dunyoqarashi va ruhiyatini qahramonlar tili orqali ifodalab, tasvir vositalaridan, monolog hamda dialoglardan unumli foydalanadi. Shoir bu orqali qahramonning ruhiy ahvoli va iztiroblarini kengroq yoritishga intiladi. Bu jihatdan Bulbul-Humo, Bulbul-Tovus, Bulbul-To'ti, Bulbul-Kaklik, Bulbul-Qumri, Bulbul-Foxta, Bulbul-So'fi, Bulbul-Hudhudlarning dialog va monologlari e'tiborga loyiqdir. Xususan,







dostonning “Necha kunlar yurub, Bulbul bir chamang’a borgani”, - deb nomlangan faslida Bulbul va qushlar o’rtasida bo’lib o’tgan munozarada xuddi shunday holatni kuzatish mumkin:

Dedi qushlar: “Nechukdur dard holing,

Bayon etgil nechukdur qil-u qoling”.

Dedi qushlar: “Na debon oh urarsan,

Fig’on-u nola aylab, zor etarsan.

Bu vodiy ichra bo’ldung bizg’a hamdam,

Ki bizg’a aylagil sirringni mahram”.

Dedi qushlar: “Nadin holing parishon?”

Dedi Bulbul: “Jonimda dog’-u hijron”.

Dedi qushlar: “Nadin holing xarobdur?”

Dedi Bulbul: “Meni bag’rim kabobdur”.

Dedi qushlar: “Nadin sargashtadursan?”

Dedi Bulbul: “Sitamdin xastadurman”.

Dedi qushlar: “Nadin sen zori majruh?”

Dedi Bulbul: “Magar men bejism ruh”.

Dedi qushlar: “Nadin sen muncha giryon?”

Dedi: “Gulni firoqi qildi bir yon”.

Dedi qushlar: “Qayu Gul oshiqisan?”

Dedi Bulbul: “Qizil Gul oshiqiman”.

Dedi qushlar: “Qachon zor etti ul Gul?”

“Azaldindur bu qismat”, - dedi Bulbul.[19]

Ushbu parchadan personaj nutqining bir qancha ahamiyatli tomonlari ko’zga tashlangan. Bularning barchasi qahramon ma’naviy olami, ruhiyatini anglashga yordam beradi.

Qahramon ruhiy kechinmalari, fikr-mulohazalarini anglashda monologlar ham muhim ahamiyatga ega. Shoir monologlarda o’z fikrlarini asoslashga, kechinmalarini qahramon kechinmalari bilan uyg’unlashtirishga, o’quvchi uchun sirli va yashirin hissiyotlarni ochishga, asosiysi, qahramon ruhiyatidagi tadrijiy holatni ta’sirchan ifodalashga erishgan. Quyida Bulbul tilidan bayon etilgan parchada yuqoridagi holatlarni aniqroq tasvirlanganligini guvohi bo’lishimiz mumkin:

“Firoqing birla, ey Gul, kuydi bu jon,

Nechuk hol erdi bo’ldim zori hayron.

Hamisha ishtiyoqing dardi birla,

Ko’ngilda sabr yo’q, hajringda somon.

Sening yoding birla shom-saharlar,

Qilurman nola aylab oh-u afg’on.

Kecha-kunduz sening ishqingda yig’lab,

Ki yoshim o’rniga doim oqar qon.

Seni hajring bila jon chiqdi tandin,



Ko'rubon koshki bergay edim jon". [14]

Salohiy monologni berishda o'z uslubiga sodiq qolib, Bulbulning so'roq mazmunidagi so'zlarini ritorik so'roq mazmunida beradi (Nechuk hol erdi bo'ldim zori hayron). Personajlarning o'z-o'zini va bir-birini ta'rif-tavsif etish usulidan keng foydalanadi:

Qilur murg'i chaman e'zozi ikrom,  
Hamisha to'ti derlar, ey nekunom.  
G'izo uchun berurlar shahd-u shakar,  
Tanim zangor bolim la'li gavhar.  
Kiyib ziynat uchun egnig'a zangor,  
Bu qushlar ichra men yanglig' qachon bor.  
Takallum ichra Iso dini suxanvar,  
Tilindin sochilur dur birla gavhar.  
Huzurum tobsa beaql johil,  
Bo'lur har lahzada donovu oqil.  
Menga quldur bari shahzoda-yu shoh,  
Bo'lur doim muhabbat birla hamroh.  
Giriftor o'lmog'im bo'lmish o'zimdin,  
Jahon jon eltadur shirin so'zimdin". [26]

To'ti tilidan aytilgan yuqoridagi baytda shoir to'tining sifatlarini berishda tanim zangor, bolim la'li gavhar, Iso dini suxanvar, donovu oqil, menga quldur bari, shirin so'zim kabi birikmalardan foydalangan. Har kimning nutqidan uning qanday inson ekanligi bilinganidek, to'tining ham bunday so'zlari orqali, bizning nazarimizda, u manman, kibrli, o'ziga yuksak baho beruvchi sifatida g'aydalanadi.

Bunday baho berish Salohiy tomonidan voqealar tizimiga kiritilgan boshqa monologlarda ham ochiq-oydin sezilib turadi. Jumladan, Sabo Bulbulning oldiga borib, uni Gul huzuriga chorlayotganini eshitganidan so'ng xursand bo'lib ushbu g'azalni aytadi:

"Bihamdillah agarchi zor bo'ldum,  
Muhabbatdinda ul yor bo'ldum.  
Meni bechorayi mahzuni miskin,  
G'am-u dard-u balog'a yor bo'ldum".[6]

Ushbu monologda shoirning o'z holati ham bayon etilgan. Bu bilan shoir muallif tilidan bayon qilingan fikrlarni qahramonlar tiliga ko'chiradi va asar voqealariga chambarchas bog'laydi:

Salohiy asar tilining obrazlilikini oshirish maqsadida tabiat tasvirining ajoyib namunalarini yaratadi. Asarda chamanzor tavsifi va vodiy tasviri tez-tez uchraydi:

Banogah yetti Bulbul bir chamanga,  
Kelib tushti gulistoni sumanga.  
Ko'rar nogah chamanning Bulbul zor,  
Guli qahqah ochilib turfa gulzor.



Ajoyib bir chamandur lolazori,  
Ochilib rang-barang Gul sad hazori.  
Nazokat Gullar-u ishqi pechaklar,  
Guli zebolar-u rango-rang chechaklar.  
Guli ra'no-yu savsan birla rayhon,  
Guli ra'no-yu abbos birla chandon,  
Gulistoni Eramdek Bulbul zor,  
Degaysan bog'i jannat turfa Gulzor.[8]

Salohiy vodiy tasvirini yuksak badiiy ifodalar ekan, ushbu vodiyga nisbatan “zebo, sabz, xurram, kiyib yashil tal'at, xushzeb, xushhusnlidek” kabi sifatlarni qo'llaydi.

O'shal vodiy ediki bog'i gulzor,  
Ajoyib turfa gulzor-u chamanzor.  
Bu vodiy erdi zebo, sabz, xurram,  
Guli bor necha turluk rang-barang ham.  
Bu vodiyda ochilib rang-barang Gul,  
Guli savsan, suman, nasrin, sunbul.  
Kiyib yashil tal'at ki vodiy,  
Ochilib yaxshi gullar turfa vodiy.  
Ochilib lola-yu gullar manqush,  
Ani har bir guli zebo-yu dilkush.  
Tuman turluk chechaklari ochilib,  
Yarashib lolalar bisyor xush zeb.  
Suyanib Gul bila ra'no gulidek,  
Ajab vodiy erur xush husnlidek.

Yuqoridagi parcha orqali muallifning tasvirlash san'atidan yaxshi xabardor ekanligini bilish mumkin.

Dostonda badiiy-poetik tilning ohangdorligi va jarangdorligini ta'minlash maqsadida o'ziga xos vazifa bajaruvchi takrorlarga ham alohida e'tibor qaratadi. Asarda bunday baytlar tez-tez uchraydi. Xususan, ushbu holatni Sabo Bulbulga nasihat qilgan o'rinda ko'rishimiz mumkin:

Tikondin sen dilingni resh qilma,  
Tavakkal qil to'la andisha qilma.  
Tavakkal aylagil himmat bila bo'l,  
Tavakkal aylasang, bo'ston bo'lur cho'l.  
Tavakkal aylabon tushsang bu yo'lga,  
Xudoning lutfidur, kirsang bu yo'lga.  
Tavakkal aylagan himmat bila yer,  
Murodi mevasidin bo'lg'usi sir.  
Tavakkal pasha qilg'on erni holi,  
Ucharda hamtidur pir-u boli.







Tavakkal sheri nar, andisha moda,  
Tavakkalg'a yaramas bo'lsa loda.  
Tavakkalni xudog'a qil hamisha,  
Qilib hamd tavakkal ayla pesha.  
Tavakkal qil, tavakkal qil, tavakkal,  
Tavakkaldin tikonlar bo'lg'usi gul. [15]

Bundan tashqari, shoir takrirga yaqin turuvchi mukarrirdan ham umumli foydalangan:

Dedi Gul: "Ey Sabo, Tangri uchun bor,  
Ketur Bulbulni sen *zinhor-zinhor*.

Dedi Gul: "Ey Sabo, *hayhot-hayhot*,  
Topib Bulbulni kelturgil menga bot.

Xudo taqdirig'a bordurmu chora,  
Bu furqat birla bag'rim *pora-pora*.

Bu esa mukarrirni hosil qiluvchi so'zning ma'nosini ikki karra oshirishga turtki bo'lgan. Yuqoridagi *zinhor*, *hayhot* hamda *pora* so'zlarini bir marotaba qo'llash qanday ma'noni beradi-yu, ikki marotaba qo'llash qanday ma'noni beradi. Buni har qanday odam tarrov fahmlab oladi. Bunday misralar Salohiyning badiiy asar tilini ishlashda g'oyat yuksak mahorat ko'rsatganini dalillash bilan birga, ohangdoshlik shoir badiiy mahoratining uzviy tarkibiy qismi ekanligini ham isbotlaydi.

Asarda obrazlarning ichki dunyosini ochish, doston tilining badiiyligini va xalqchilligini ta'minlashda jonli xalq tili durdonalari hisoblangan maqol, ibora, kinoya, hikmatli so'zlardan ham o'z o'rnida foydalangan. Bu esa asarda pand-nasihath ruhidagi misralarni yorqinroq ifodalashda, qahramonlarning hayot haqidagi tasavvurlarini ko'rsatishda yordam bergan. Quyida ularning ayrimlarini keltiramiz:

Misoldur bo'lmas hargiz gul tikonsiz,  
*Bahori bo'lmag'ay hargiz xazonsiz*. [15]

*Bahor orqasida bod xazon bor*,

Xazon kelsa, na men bor-u, na sen bor. [15]

Yoki:

Yana ko'rsam debon qilg'aysan armon,  
*Nadomat sud qilmas ham pushaymon*. [15]

Dostonda xalq maqollari ba'zan o'zgarishsiz, ba'zan asar matni talabiga ko'ra birmuncha o'zgartirilgan holda uchraydi. Yuqoridagi birinchi va ikkinchi baytlarda qo'llanilgan "*Bahori bo'lmag'ay hargiz xazonsiz*", "*Bahor orqasida bod xazon bor*" mazmunidagi maqol "*Tikansiz gul, sadafsiz dur, mashaqqatsiz hunar bo'lmas*" maqolini yodimizga solsa, uchinchi baytda qo'llanilgan "*Nadomat sud qilmas ham pushaymon*" esa xalqimiz orasida mashhur bo'lgan "*So'nggi pushaymon o'zingga dushman*" maqoli mazmuniga mos holda yaratilgan. Bu asar mazmuniga putur yetkazmagan, aksincha, asar mazmunining ta'sir doirasini va xalqchilligini oshirgan. Yuqoridagilarning o'ziyoq maqollar asar g'oyaviy mundarijasini boyitish, uning




ta'limiy ahamiyatini oshirish bilan birga, doston badiiyligini ta'minlashda muhim o'rin tutishini ko'rsatib turadi. Ayniqsa, Salohiy xalq so'zlashuv tiliga xos ayrim sodda, kinoyali, kesatq so'z va iboralarni qo'llab, asar tilining xalqchil, obrazli bo'lishini ta'minlaydi. Chunonchi, qumri o'zining sifatlarini aytib Bulbulga maqtanganida Bulbul tilidan "so'zung yolg'on", "nodon qush", "behush", "sarxo'y", "domi tazvir", "tuhmat qilursan" kabi jummalarni qo'llaydi. Ushbu parchadagi salbiy ma'noli so'zlarning ahamiyatli tomoni shundaki, ular orqali Qumrining qanday qush ekanligini, qahramonlarning unga munosabatini bilish mumkin.

Doston tilining asosiy xususiyatlaridan biri soddalikva ta'sirchanligidir. Chunonchi, asarda davoyi dard, pir-u barno (keksa-yosh), yaxshi-yomon, bosh-ayoq, tan-u jon, baland-past, tururda-borurda, ichi-yu tashi, shom-sahar, vafo-jafo bahor-xazon, yumub ochquncha kabi antonimlar, g'arib-bekas-afgor, g'am-dard-balo, Gulistoni Eram-bog'i jannat, noz-ishva, farahnok o'ldi-xurram bo'ldi, miskin navoying-benavoying, fig'on-nola-oh, nola-oh-afg'on kabi sinonimlar, jonim o'rtar, kuydi bu jon, bo'ldi digargun kabi obrazli iboralar turli g'oyaviy-badiiy maqsadlarda qo'llangan. Shuningdek, dostonida suman, binafsha, sunbul, nazokat gullari, pechaklar, guli zebolar, chechaklar, guli ra'no, savsan, rayhon, Guli savsan, nasrin kabi Gullar; hudhud, tovus, qumri, humo, so'fi, to'ti, kabk, foxta kabi qushlar nomi tez-tez uchraydi.

Dostonida resh (jarahot), hoyil (to'siq), g'amnok (g'amgin), asru (nihoyatda), siroyat (voqif bo'lish), xun (qon), dahr (dunyo), murg'zori (qushlar makoni), guzar (ko'cha), Gulobi (pushtirang), charxi gardon (teskari dunyo), sad hazori (yuz ming), farahnok (xursand), xo'y (fe'l), pargola (qayg'u), betahammul (sabrsiz), giryon (yig'lamoq), xandon (xushchaqchaq), xudbin (o'zinigina o'ylovchi), havogir (uchuvchi), shabgir (kechqurun yuruvchi), manqush (bezalgan), dilkush (dilni o'ziga tortuvchi), bisyor (ko'p), zeb (chiroyli), xushalhon (xushohang), o'shshoq (oshiqlar), xushnud (shod-xursand), o'stxo'oni (suyak), tinat (xarakter), zabardast (kuchli) kabi fors-tojikcha so'z va izofali birikmalar ham uchraydi. Buning asosiy sababi, bizningcha, o'sha vaqtlarda Buxoro, xususan, Qashqadaryo adabiy muhitida zullisonaynlik an'analari kuchli bo'lganligidadir. Chunki bu joylarda yashovchilarning ko'pchiligi fors-tojik tilini ham yaxshi bilishgan va yuqoridagi so'zlarning ma'nosini bemalol tushunganlar, aniqrog'i, bunday so'zlar ularning nutqiga singib ketgan. Shuning uchun Salohiy ushbu so'zlarni bemalol qo'llagan bo'lsa kerak.

Xulosa qilib aytganda, doston tili bilan tanishgan o'quvchi unda mazmun va shakl o'rtasidagi mutanosiblikni izchil saqlashga alohida e'tibor berilganligini ko'radi. Asar tili sodda, samimiy, obrazli, ta'sirchan, xalqchilik ruhi bilan sug'orilgan bo'lib, maxsus leksik qatlamlar, jumladan, sinonim, antonim, frazeologik birikmalar, takrorlar muallif va personajlar tilini boyitgan. Doston turkiy (o'zbek) tilida yaratilgan bo'lib, unda o'zbek tilining XVIII asr qiyofasi va imkoniyatlari yuksak darajada namoyon bo'lishi bilan birga muallifning zullisonaynlik darajasi ham ko'rinib turibdi. "Bulbul va Gul"







dostoni Salohiy ijodining yuksak namunasi sifatida shoir mahoratini belgilovchi muhim adabiy manba desak bo'ladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Абдуллаев В. Ўзбек адабиёти тарихи (2-китоб). – Тошкент: Ўқитувчи, 1964. 384-б.
2. Алишер Навоий. Ҳайратул-аброр. - Тошкент: Ғафур Ғулум номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1989. – 262 б.
3. Бобоев Тухта. Адабиётшунослик асослари — Т.: Узбекистон, 2002. -560 б.
4. Валихўжаев Б. Ўзбек классик адабиётида эпик поезиянинг тараққиёти тарихидан. Филол.фан. д-ри ... дис-яси. –Самарқанд: 1967. 1- қисм. 310-б.
5. Муҳаммад Носир. Насаф ва Кеш алломалари (IX-XX асрлар). – Тошкент: Ғафур Ғулум номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2006. 128-б.
6. Orzibekov R. O'zbek adabiyoti tarixi (XVII-XIX (I yarmi) asrlar). Adabiyot jamg'armasi nashriyoti. T.: 2006. 272-bet.
7. Равшанов П. Қарши тарихи. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2006. 647-б.
8. Равшанов П. Қашқадарё тарихи. – Тошкент: Фан, 1995. 784-б.
9. Салоҳий. Гул ва Булбул тасвири. ЎзФАШБ, тошбосма инв 577.
10. Ўзбек адабиёти хрестоматияси (XV–XIX асрлар). – Тошкент: Фан, 1945. 524-б.
11. Ўзбек адабиёти. 4 томлик. III том. – Тошкент: Ўзбекистон Давлат бадиий адабиёт нашриёти, 1959. 800-б.
12. Ўзбек классик адабиёти асарлари учун қисқача луғат. – Тошкент: Фан, 1953. 454-б.
13. Форсча – ўзбекча ўқув луғати. 2-нашри. — Т.: Ўқитувчи, 1983. 232-б.
14. Эркинов С. Лутфий - Тошкент, 1965, -128-б.